




ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

MS  
2021



Gulshan SAIDNAZAROVA

Buxoro davlat universiteti  
pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

## AL-BUXORIYNING HADISLARIDA TARBIYA MASALASI

*Maqolada hadis ilmi, hadislardagi ma’naviy-axloqiy qarashlar shaxs sifatlariga izoh berilgan. Hadislarning mazmun mohiyati-yoritilgan. Hadis har bir yosh avlodni barkamol, komil inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zлari:** hadis, odob-axloq, yaxshilik, ota-on, mehr-muhabbat, ilm, bilim, dunyoqarash, din qo’shnichilik munosabatlari, insof, adolat.

*В статье объясняется наука о хадисах, духовные и нравственные взгляды в хадисах и особенности личности. Подчеркивается суть хадисов, которые служат формированию каждого молодого поколения гармоничным, совершенным человеком.*

**Ключевые слова:** хадис, мораль, добро, отцовство, сострадание, знание, знание, мировоззрение, религия, добрососедство, честность, справедливость

*The article explains the science of hadith, the spiritual and moral views in the hadiths, and personality traits. The essence of the hadiths is highlighted. It serves to form every young generation as a harmonious, perfect person.*

**Key words:** hadith, morality, goodness, parenthood, compassion, knowledge, knowledge, worldview, religion, neighborliness, honesty, justice.

**Kirish.** Hadislarning asosiy katta qismi axloq-odob masalalariga, inson manaviyati bilan bog‘liq muammolarga qaratilgan. Shuning uchun ham hadislarga eng qadimgi davrlardan - Muhammad payg‘ambar zamonidanoq alohida ahamiyat berishgan. Hadislар imkonи boricha xatosiz, asl holida boshqalarga yetkazilishi lozim bo‘lgan. Payg‘ambar nomiga bog‘lab turib yolg‘on hadis tarqatish qattiq qoralangan. Ushbu talab natijasida hadislар ko‘p vaqtlar o‘z holicha saqlanib qolgan, ammo jamiyat bir joyda qotib turmaydi.

**Asosiy qism.** Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot oqibatida sinflar, ijtimoiy guruhlar orasida munosabatlar, qarashlar ham o‘zgarib boradi, ziddiyat, ixtilof va kelishmovchiliklar yuz beradi. Shunday hodisa islom dinida ham ko‘zga tashlanadi. Islom dinidagi ichki g‘oyaviy kurashlar va o‘zaro murosasizlik natijasida payg‘ambar hadislarini buzish, ularni soxtalashtirish ham ko‘zga tashlana boshlaydi. Bunday noma’qul harakatlarga qarshi kurashish zaruriyati yuzaga keladi. Natijada hadislarni faqat eshitish bilan emas, balki yozib olish, uning haqiqiy dastlabki shaklini tiklash bilan ham shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra hadislarni to‘plab, bir kitob holiga keltirish harakati VIII asrlardan boshlab keng avj oldi. Muhaddislar hadislarning haqiqiyligini ayrim belgilari orqali aniqlashgan. Bular: hadislар Qur‘on oyatlariga zid kelmasligi lozim; ular payg‘ambar sunnatlariga muvofiq bo‘lmog‘i shart; ularda tarixiy voqelik buzilmasligi kerak. Hadislarning g‘ayri axloqiy bo‘lishi mumkin emas. Hadislarni to‘plab, ularning haqiqiyalarini aniqlash bilan shug‘ullangan olimlar muhaddis deyiladi. Hadislarning mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ular Muhammad payg‘ambarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq hadislар talqini, o‘zaro insoniy munosabatlar, do‘stlik, ahillik, saxovat, ota-onalarga va qarindosh urug‘larga munosabat, halollik, poklik, adolat, insof, diyonat, hasad, xiyonat, rostgo‘ylik yolg‘onchilik va boshqa insoniy fazilatlar va nuqsonlar ustida bahs yuritiladi. Muhimi, ularda yuksak insoniy fazilatlar ulug‘lanadi, kishilarda shunday xislatlarning bo‘lishi ma’qullanadi va targ‘ib qilinadi, aksincha, yomon fe’l-atvor va xususiyatlarning kishilik jamiyatи uchun kulfat va azoblar keltirishi qayta-qayta ta’kidlanadi.

“Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir”. Hadislarda ota-onaning nazaridan qolish gunohlarning eng og‘iri sifatida baholanadi: “Gunohning kattasi - Tangriga shirk keltirmoqliк, nohaq qon to‘kmoqliк, ota-onaga oq bo‘lmoqliк va yolg‘on guvoh bermoqliк hisoblanadi”. Boshqa bir hadisda esa ota-ona nazaridan qolgan farzand tangri nazaridan ham qolishi qayd etiladi va ularning jannatga kirmasligiga sabab bo‘lishi uqtiriladi. Quyidagi hadis ham shu ruhda: “Ota-on aqarg‘aganini Tangri qarg‘aydi. Tangridan boshqaga atab jonlik so‘yuvchilarni Tangri la‘natlaydi”. Hadislар onalarni alohida sharaflaydi. Ularning qadrini baland ko‘rsatish, izzatini ulug‘lash, asrab-avaylashga alohida urg‘u beriladi. Hadislarda kishilarning bir-birlariga bo‘lgan samimiyati, intilishi, do‘stligi haqida ham ko‘pgina ibratli o‘gitlar borligi ko‘zga tashlanadi.


Hadislар hayot hodisalari haqidagi o‘gitnomalardir. “Din - nasihatdan iborat” degan hadis bejiz emas. Birgina qo’shnichilik munosabatlarini ko‘zdan kechiraylik. “Qo‘sning tinch - sen tinch” degan o‘zbek xalq maqoli mavjud. Hadislarda esa o‘qiymiz: “Qo‘sningizga yaxshilik qiling - tinch bo‘lasiz”. Payg‘ambar

alayhissalomning qo'shni haqidagi hadislardan yana biri: "Jabroil alayhissalom menga doimiy ravishda qo'shniga yaxshilik qilishni tavsiya etar edi, hatto qo'shniga meros ham qoldirish kerakmi, deb o'ylab qolar edim. Xizmatkorlarga ham shunday yaxshi muomalada bo'lishni aytar ediki, hatto muayyan bir vaqt belgilasa kerak va o'sha muddat yetishi bilan qullar o'z-o'zidan ozod bo'lib ketsa kerak, deb o'ylab qolar edim". Hadislarda hatto iymonning baquvvatligi va Ollohgaga sadoqati ham qo'shniga qilinadigan muomalaga bog'lab talqin qilinadi. Ko'rini turibdiki, bularning hammasi inson ma'naviyati, uning boyligi bilan bog'liq. Har qanday g'arazlardan xoli bo'lgan, har bir insonga pok nazar bilan qaray olish darajasiga ko'tarilgan inson ma'naviy jihatdan boy hisoblanadi. "Qachonki hayolingizdan biror shubhali fikr o'tsa, uni tark eting!" "Iymon jihatdan mo'minlarning komilrog'I - xulqi yaxshi bo'lgani va xotinlarga yaxshi muomala qiladiganidir". "Iymonli odam va'daga vafodor bo'ladi". "Islom, ya'ni musulmonchilik oshkora narsadir, iymon esa dildadir". "Iymon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas".

Hadislarda ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bo'lgan kishilarga alohida e'tibor berilgan: "Qalbning muloyim, hojating ravo bo'lishini xohlaysanmi? Xohlasang, yetimlarga mehribon bo'l, ularning boshini sila, o'z taomingdan ularga yedir. Shunda diling yumshab, hojating ravo bo'lur". "Tangri nazdida uylarning yaxshirog'i - yetimlar izzat qilinadigan uydir". "Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga bo'lurman".

Odamiylik ham hadislarda tez-tez tilga olingan mavzulardan. Jumladan, "O'zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r!". Yoki: "Ziyoratingizga kelgan odamning hurmatini joyiga qo'yinglar".

Islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo'lishi kerak. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, Islom dini ta'limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e'tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:



Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya uning belgilari sanab o'tiladi. Bu belgilarning har biri inson ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: "Qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir", "O'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz" (3-4-boblar); "Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq" (20-bob).

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo'lмаган munofiqlik xislati xususida ham so'z yuritiladi, chunonchi, "Rasululloh sallallohu alayhi vassallam aytganlar: "Quyidagi to'rtta xislat kimda bolsa, aniq munofiq bo'lg'aydir, kimdaki, ulardan bittasi bo'lsa uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan, deyiladir:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qiladir (25-bob).

**Muhokamalar va natijalar.** Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltirguvchi shaxs bo'lib yetishishida muhim omildir, deya ko'rsatiladi. "Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdag'i baliqlar ham". Bilimsizlik kishilarning nodonligiga zamin hozirlashi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat hamda razolatning hukmronlik qilishi alohida ta'kidlab ko'rsatiladi. "Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati" borasidagi hadis (21-bob)da ilm o'rganish ko'p yoqqan yomg'irga qiyoslanadi va ilm ahli quyidagi uch turga boladi: "Ba'zi yer sof, unumdar bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradida, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'ziga to'playdir, undan Olloh taolo bandalari foydalangaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlari va ekinlarini sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muqoyosa qilish mumkindir: Bir kishi Olloh ilmini (Islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadi va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchisi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabburlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir".

Ammo ilmgan e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi. Hatto Rasululloh quyidagilar qiyomat alomatlaridir, deganlar: ilmning susaymog'i; jaholatning kuchaymog'i; zinoning avj olmog'i; xotinlarning ko'paymog'i; erkaklarning ozaymog'i.

"Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir" mazmunidagi hadis orqali o'zlashtirilgan ilmnini takrorlab borish, faqat chuqur va puxta bilimlargagini ega bo'lgan kishilarning atrofdagilarga ilm berishining maqbul ekanligiga urg'u beriladi. Hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o'tkir zehnli, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi va "Ilm-u hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar", - deya da'vat etiladi. "Olim bo'1, ilm beruvchi bo'1 yoki ilm o'rgatuvchi bo'1 yoki tinglovchi bo'1. Besinchisi bo'lma, halok bo'lasan" mazmunini ilgari suruvchi hadisning bayon etilishi orqali ham ilmli bo'lish insonni falokat va uning yomon oqibatlaridan saqllovchi omil ekanligiga urg'u beriladi (41-hadis).

Bir qancha hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, "Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir" (268-hadis). Biroq ilmning manfaatsiz holda sarflashdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytildi va ilm ahli ana shunga davat etiladi (173-hadis), haqiqiy komil insonning bilimga boy, xushxulq, sog'lom bo'lishi (182-hadis), uni faqat foydali ishlar va insonlarning farovon hayot kechirishlari yo'lida sarf etish kerakligi ham uqtiriladi: "Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasulloh sallallohu alayhi-vassalamning sahabalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasulloh sallallohu alayhi-vassallam: ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas biri - kishiga Olloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni haq yo'lida sarflayotgan - bo'lsa; ikkinchisi - kishiga Olloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa", - deydilar.

Ma'lumki, islom ta'lomitida eng yuksak xislatlardan biri sifatida ota-onaga g'amxo'rlik, ularni e'zozlash, ota-onha haqqini o'z o'rniga qo'yish, farzandning ular oldidagi haqqi borasidagi masalalarning yoritishiga alohida e'tibor qaratiladi. Hadislarda ham ana shu talablar o'z ifodasini topgan. Ota-onani xafa qilib yig'latish eng katta gunohlar sifatida e'tirof etilgani quyidagi, ya'ni Olloh taolonning mavjudligiga shirk keltirish, odam o'ldirish, urush maydonidan qochish, afifa (o'zini pokiza saqlagan) xotimi fohisha deb tuhmat qilish, ribo (ijaraxo'rlik), yetimlar molini yemoq, Olloh taolonning qudrati va irodasini inkor qilish, odamlarni masxaralash hamda ularni kamsitish kabi gunohlar qatorida tilga olib o'tiladi. Hadislarda ota-onaning dilini og'ritib, ozor berish, ularni xafa qilib, buyruqlarini bajarmaslik ham qoralanadi "Namir ibn Avs aytishlaricha, o'tmish kishilari bolalarining solih-qobil bo'lishlari Olloh taolonning tavfiqi bilan bo'ladi, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalari vazifasidir, der edilar" (92-hadis).

Bir qancha hadislardan mazmunan insonni saxovatli bolishga undaydi. Saxovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi, uning ravnaqi yo'lida mehnat qiladi, atrofdagilarni o'zi ega bolgan ne'matlardan bahramand etadi.

Shu bilan birga, hadislarda yana kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs qo'yishdan saqlanish kerakligi, kelajakka nisbatan ishonch bilan yashash xususidagi fikrlar ham o'rin olgan. Chunonchi, "Birortangiz ekish uchun qo'lingizda biror ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsa-yu, qiyomat qoyim bo'lishidan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz yetsa, albatta, ekib qo'ying", - degan fikrlar hayotga bo'lgan umid, kelajakka bo'lgan ishonchning yorqin ifodasidir.

Xulq-odob haqidagi hadislarda ezgu insoniy xislatlar ulug'lanib, gunoh sanalgan illatlar qoralanadi.

Bundan tashqari, sha'riy udum va urf-odatlarga amal qilish, ularni o'tkazishga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, kiyinish qoidalari, yemoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, ular bevosita keyingi davrlarda yaratilgan odob-axloq qoidalari borasidagi risolalarning mazmunini yoritishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tqazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqtqi-vaqtqi bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi fikrlar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227-va 446-hadislardan), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislardan shular jumlasidan.

Hadislarda yomon ishlar, illatlar, yomon xatti-harakatlar gunoh sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu xatti-harakatlar, faoliyat savob tarzida olqishlanadi.

Shunga ko‘ra, yetim molini yeyish, mol-dunyoga hirs qo‘yish, yolg‘onchilik, g‘iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gapni ko‘p gapirish va boshqa illatlar gunoh hisoblansa, ota-onal, keksalar, zaiflar va muhtojlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni yo‘qlab turish, marhumlarni yaxshi so‘zlar bilan xotirlash, omonatga xiyonat qilmaslik kabilar savob sanalishi alohida ta’kidlanadi.

Demak, hadislar Muhammad payg‘ambarimizning sunnatlari bo‘lib, mazmunan har bir mo‘minning ishonchi, e‘tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma‘naviy kamolotga yetaklaydi. “Islom dini ma‘rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazishga oid e‘tiqod va iymondan iborat bo‘lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, olyjanob bo‘lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo‘l qo‘ymaslik, o‘z birodarining, qarindosh-urug‘larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir”. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mo‘minlarning hammasi bir-birlariga birodardirlar. Ularning biri ikkinchisidan ortiq emas, balki ortiq-kamlik taqvoga qarab belgilanadi. Ushbu hadis qarindosh urug‘ munosabatlaridan tashqari har bir mo‘min-musulmon bir-biriga mehribon bo‘lish, bir-birini tushuna olish, sadoqatlari va mehribon bo‘lishga undaydi.

Dunyodan o‘tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar. Ikki kishi bir-birlarini haqorat qila boshlagan bo‘lsalar, ulardan qay biri birinchi boshlagan bo‘lsayu, basharti bunisi haqoratda undan o‘tkazib yubormagan bo‘lsa, gunohi o‘shanga bo‘ladi. Ushbu hadisda ham shirinso‘zlik har bir shaxslar orasidagi mehr muhabbat, sadoqat kabi ijobjiy sifatlar aks ettirilgan.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak har bir hadis juda chuqur tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Uni o‘rganib hayotimizga tatbiq etsak o‘sib ulg‘ayayotgan har bir yosh avlod barkamol va komil inson bo‘lib tarbiyalanadi. Har bir kishining ota-onasiga yaxshilik qilganidek, bolalariga ham yaxshilik qilishi shartligi, zero, inson bo‘ynida ota-onaning haqqi bo‘lganidek, bolaning ham haqqi borligi xususidagi g‘oyalar Qur’oni Karimda ham, Hadisi sharifda ham uqtiriladi.

Har bir inson qilgan ezgu amallari va odob-axloqi bilan yaxshi nom qoldiradi. Mazkur holat hadislar mazmunida shunday talqin etiladi: “Mo‘min kishiga vafotidan keyin savobi tegib turadigan amali solihlar quyidagilardir:

1. Tarqatgan ilmi.
2. Qoldirgan solih farzandi.
3. Meros qoldirgan Qur’oni.
4. Qurgan masjidi.
5. Yo‘lovchilar uchun qurban mehmonxonasi.
6. Qazigan arig‘i.
7. Tirikligida va sog‘lomligida sadaqa - ehson uchun ajratgan moli”.

Haqiqatan ham inson hayotdan o‘tadi, lekin u ilm-ma‘rifat, ziyo tarqatishda, xalq farovonligi yo‘lida qilgan ishlari bilan xalq orasida abadiy qoladi. Ana shunday xislatlardan eng muhimi saxovatdir.

### **Adabiyotlar**

1. Axmedova M. Umumiy pedagogika nazariyasi va tarixi. –Toshkent, 2011-yil. 48-bet
2. Al- Buxoriy. Al-adab al mufrad. –Toshkent: “Movarounnahr”, 2006-yil.
3. Hikmatullayev H., Mansurov A. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –T.: “Fan” nashriyoti. 15-bet
4. Hashimov K. Nishonova S. Pedagogika tarixi. –Toshkent, 2005-yil. 55-bet

## МУНДАРИЖА

Бахтиёр АДИЗОВ. Креатив фикрлашга йўналтирилган таълим технологиялари .....	5
Ширинбой ОЛИМОВ. Таълимни технологиялаштиришнинг асосий элементи .....	9
Болта ХОДЖАЕВ. Олий ўкув юртларида муаммоли таълим технологиясини қўллашнинг айрим жиҳатлари.....	15
Nasiba AZIMOVA, Zarina NASIMOVA. O‘qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.....	20
Акбар ГУЛБОЕВ. Педагоглар фаолиятини ташхис қилишнинг назарий ва методологик асослари....	26
Qobiljon ABDULLAYEV, Nargiza BOBOMURODOVA. Qadimgi mesopatamiyadagi madaniy-ma’rifiy taraqqiyot sarchashmalari .....	30
Гулия ҲАБИБОВА, Умида БАҲРИЕВА. Талабаларнинг мустақил иши - таълимни ташкил этишининг етакчи шакли сифатида.....	33
Лола ЭЛИБОЕВА. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини оширишда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш .....	37
O‘lmas QURBONOVA. O‘zbekiston va Finlyandiya ta’lim tizimi: muammo va istiqbollar.....	42
Гулчехра ИЗБУЛЛАЕВА. Муслиҳиддин Саъдий Шерозийнинг “Гулистон” ва “Бўстон” асари юксак дидактик манба сифатида .....	46
Gulnoz TOSHOVA. Pedagogik faoliyat va uni takomillashtirishda pedagog mahorati .....	52
Manzura OCHILOVA. Sharq mutaffakkirlari merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash.....	57
Dildora TOSHEVA. Boshlang‘ich sinflarda “Atrofimizdagi olam” fanidan “Yashil dorixona” mavzusini o‘qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	61
Bobomurod JO‘RAYEV. Somoniylar davrida ta’lim tizimi va mazmuni.....	65
Dilfuza RAKHMONOVA. Equirements for preschool education teacher.....	70
Matluba XOJIYEVA. TA’LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	74
Нигина ИСМАТОВА. Оиласда болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланиш усул ва воситалари.....	79
Олимжон АХМАДОВ. Бухорода янги усул мактаблари фаолияти (XIX аср охири XX аср I чораги) .	83
Nilufar RAXIMOVA. Tarbiya va shaxs kamoloti .....	89
Gulshan SAIDNAZAROVA. Al-Buxoriyning hadislarida tarbiya masalasi .....	94
Нигора САЙФУЛЛАЕВА. Методика оценки развития экономического мышления у студентов вуза	98
Маърифат УМУРОВА. Мактабгача ёшдаги болаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мусиқанинг ўрни.....	103
Oybek ORTIQOV. O‘quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash mazmuni .....	109
Феруза РАМАЗОНОВА. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида .....	113
Olimjon AHMADOV, Dilnoza ELOVA. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar).....	116
Madina BAXRAMOVA. Modulli ta’limni joriy etishning muammolari va yechimlari .....	120
Болта ХОДЖАЕВ, Ситора ШАРИПОВА. Талабаларнинг ўкув– билув фаолиятини активлаштиришда муаммоли таълим имкониятларидан фойдаланиш .....	124
Shaxlo XALILOVA. Jahon pedagogikasida pedagogik muloqotning zamонавиј uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublari bilan integratsiyasi .....	129
Zuxriddin SHERNAZAROV. Abdulla Avloniyning ma’rifiy-pedagogik faoliyati .....	134
Феруза ЖУМАЕВА. Ўзбек оиласарида ёшларнинг оиласий тарбия ҳақидаги тасаввурларини шакллантириш .....	138